

Xorazm viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2018 yil yanvar-dekabr (dastlabki ma'lumot)



Ish haqi. 2018 yil yanvar– dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:



ta'limda 1031 ta muassasada 56476 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 47,5 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 868600105,0 ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 40,9 %ni) tashkil etgan. **Ta'lim sohasida** ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1281665,5 so'mni tashkil etib, **2017 yilning mos davriga nisbatan 30,8 % ga o'sdi;**



sanoatda 30 ta korxonada 11409 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 9,6 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 303182211,4 ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 14,3 %ni) tashkil etgan. **Sanoat sohasida** ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2214495,9 so'mni tashkil etib, **2017 yilning mos davriga nisbatan 32,1 %ga o'sdi;**



sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 66 ta muassasada 21621 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 18,2 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 323688058,2 ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 15,2%ni) tashkil etgan. Hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1247583,6 so'mni tashkil etgan. **2017 yilning mos davriga nisbatan 18,0%ga o'sdi.**



•**tashish va saqlashda** 7 ta korxonada 2496 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,1%ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 73803758,5 ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 3,5%ni) tashkil etgan. **Tashish va saqlash sohasida** ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2464067,8 so'mni tashkil etib, **2017 yilning mos davriga nisbatan 15,4%ga o'sdi;**



•**moliyaviy va sug'urta faoliyatida** 30 ta muassasada 3023 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,5%ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 107089842,1 ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 5,0%ni) tashkil etgan. **Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida** ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2952085,2 so'mni tashkil etib, **2017 yilning mos davriga nisbatan 32,3%ga o'sdi.**

Ma'lumot uchun: Ozbekiston

•Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2018 yil yanvar- dekabr oylarida **501959,5** so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



2018 yil yanvar– dekabr oylarida Xorazm viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1488899,1 so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan **22,8%**ga o'sishni ta'minladi.

Yuridik shaxslarda xodimlar soni va ish haqi fondi
(2018 yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

	Korxonalar va tashkilotlar soni, birlik	Xodimlar soni, kishi	Ish haqi fondi, ming. so'm	O'rtacha oylik ish haqi, so'm
Xorazm viloyati - jami	2312	118944	2125147418,8	1488899,1
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	30	11409	303182211,4	2214495,9
Qurilish	11	1429	25686680,2	1497940,3
Savdo	21	2094	46260204,0	1840982,3
Tashish va saqlash	7	2496	73803758,5	2464067,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	13	60	743048,2	1032011,5
Axborot va aloqa	18	826	17695217,0	1785231,7
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	30	3023	107089842,1	2952085,2
Ta'lim	1031	56476	868600105,0	1281665,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	66	21621	323688058,2	1247583,6
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	120	1610	22196484,6	1148886,4
Boshqa faoliyat turlari	965	17900	308136805,7	1434528,9

. **Qurilish sohasida** 11 ta korxonalarida 1429 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,2 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 25686680,2 ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 1,2 %ni) tashkil etgan.

Qurilish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1497940,3 so'mni tashkil etib, **2017 yilning mos davriga nisbatan 14,0%ga o'sdi**;

Savdo sohasida 21 ta korxonada 2094 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,8%ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 46260204,0 ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 2,2%ni) tashkil etgan.

Savdo sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1840982,3 so'mni tashkil etib, **2017 yilning mos davriga nisbatan 41,1%ga o'sdi**;

Axborot va aloqa sohasida 18 ta korxonalarida 826 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,7%ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan sh haqi fondi 17695217,0 ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 0,8%ni) tashkil etgan.

Axborot va aloqa sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1785231,7 so'mni tashkil etib, **2017 yilning mos davriga nisbatan 29,7% ga o'sdi**;


Boshqa faoliyat turlarida 965 ta 17900 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 15,0%ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 308136805,7 ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 14,5%ni) tashkil etgan.

Boshqa faoliyat turlarida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1434528,9 so'mni tashkil etib, **2017 yilning mos davriga nisbatan 33,1% ga o'sdi**;




Ta'lim faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ta'limda viloyat ta'limiga nisbati

(2018 yil yanvar- dekabr; kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)




Xorazm viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(yanvar- dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
sub'ektlaridan tashqari, so'm)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Urganch shahrida **1801941,3 so'mni** (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **(121,0%)**), Xazarasp tumanida **1584192,4 so'mni (106,4%)** tashkil etgan bo'lsa, Gurlan tumanida **1234611,2 so'mni (82,9%)**, Shovot tumanida **1155112,2 so'mni (77,6 %)** va Yangibozor tumanida **1225312,9 so'mni (82,3%)** tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga teng bo'lmoqda.

**O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori va o'sish sur'ati
(2018 yil yanvar-dekabrda qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
sub'ektlaridan tashqari) so'mda**



2018 yanvar-dekabr oylarida 2017 yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati savdoda 40,1%, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 34,9%, boshqa faoliyat turlarida 33,1%, sanoat 32,1%, moliyaviy va sug'urta faoliyati 32,3%, san'at,ko'ngil ochish va dam olish 31,7%, axborot va aloqa 29,7% kuzatildi.

**Xorazm viloyatining
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi
Nashr uchun mas'ul: Z.Bobojanov
(71) 230-81-82**